

O'ZBEK SIMFONIK MUSIQASI RIVOJLANISHINING ASOSIY DAVRLARI

Gulchehra Karimova

V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan
musiqa maktabi. Toshkent**Annotatsiya**

Simfonik musiqa - asosan, simfonik orkestr ijrosiga muljallangan musiqa asarlaridan iborat. Ushbu maqolada XX-asrda O'zbekistonda simfonik musiqa rivojlanishining asosiy davr va bosqichlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kompozitor, simfoniya, poema, syuita, uvertyura.

Simfonik musiqa zamonaviy o'zbek musiqa madaniyatining shakllanish bosqichlarida ravon rivojlanib kelgan janrlardan biridir. Uning rivojlanishi 2 yo'l orqali bosib o'tilgan: bir tomondan yevropa simfonik tafakkuri qonuniyatlarining asta-sekinlik bilan o'zlashtirilishi; ikkinchi tomondan o'zbek musiqiy merosda yashiringan potentsiallarning jadal ravishda qo'llanilishidir. O'zbekistonda simfonik musiqaning shakllanishi shuningdek kompozitorlik ijodiyotining rivojlanishi, yangi ijro jamoalarining tashkil etilishi, ko'povozlik musiqalarning shakl va janrlari o'zlashtirilishi bilan bog'liq. Simfonik musiqaning shakllanishi shu jumladan simfonik orkestrlarning tashkil etilishi bilan chambarchas bog'liq. Masalan, XX asr boshlarida – bu havaskorlik orkestri, 1915 yillardan – xarbiylar orkestri, 1936 yildan – filarmoniya qoshidagi simfonik orkestr [4, b. 25]. Aynan shu orkestr O'zbekiston kompozitorlari simfonik asarlarining asosiy ijrochisi va O'zbekistonda simfonik musiqaning targ'ibotchisi vazifalarini bajardi. Shuningdek bu orkestrning faoliyati O'zbekistonda dirijorlik san'atining shakllanishi bilan bog'liq. Bu asnoda A.Kozlovskiy, M.Ashrafi, T.Sodiqov, Z.Xaknazarov kabi mohir dirijorlar yetilib chiqqan.

O'zbekistonda simfonik musiqaning shakllanishi va rivojlanishini 4 davrga bo'lish mumkin:

1. 1920-1930 yillarni o'z ichiga olgan erta davr. Simfonik musiqaga dastlab o'rganish davri. Bu davr rus kompozitorlari faoliyati, shuningdek sitatlar bilan ishlash davri hisoblanadi. Aniqroq qilib aytganda, birinchi davr – rus kompozitorlari ijodiyoti, simfonik orkestr tashkil etilishi, o'zbek an'anaviy musiqa misollarini qo'llash yo'li orqali yevropa klassik musiqa shakl va janrlarida asarlar yaratilishi bilan bog'liq. Ushbu davrda ijod qilgan V.Uspenskiy, R.Glier, A.Kozlovskiy, G.Mushel, B.Nadejdin kabi kompozitorlar nomlarini tilga olishimiz mumkin. Ular o'z simfonik asarlarini o'zbek musiqiy tematizmi asosida yaratgan. Asarlarning aksariyati dasturli bo'lgan. Asosiy janrlar bu xalq kuylarini qayta ishlash (obrabotki), masalan, V.Uspenskiyning "4 ta xalq kuylarining ovoz va simfonik orkestr uchun qayta ishlanishi", orkestr uchun kichik pesalar, simfonik syuita, simfonik poema, uvertyura. O'zbek xalq kuylarini qo'llab yozilgan asarlarning eng birinchilardan V.Uspenskiyning "Zarkokil" asarini

ajratish mumkin [7, b. 46]. Melodik material to‘la to‘kis manbaga asoslangan, qolgan partiyalarda esa eng sodda elementlar – imitatsiya, parallel kvarta va kvintalar, qo‘shimcha ovozlari qo‘llanilgan. Orkestrga xalq cholg‘ulari kiritilgan. Sitatalik uslubiga asoslanib yozilgan keyingi asar – R.Gliernig “Farg‘ona bayrami” uvertyurasi. Bu asar 1930 yillar oxirida, Farg‘ona kanalining ochilish marosimiga bag‘ishlanib yozilgan. Uvertyura sonata shakliga ega. Asarning asosiy partiyalarida xalq musiqasi namunalari qo‘llanilgan:

Exp. – birinchi bosh partiya – “Andijon samosi” kuyi
 ikkinchi bosh partiya – “Chamanda gul” kuyi
 yondosh partiya – lirik tojik kuyi

Re. – birinchi bosh partiya va yondosh partiyalar rivojlanadi, shuningdek lavha – lapari “Qorasoch” kuyi asosida.

Ra. – qisqa, birinchi bosh partiya asosida, coda bilan yakunlanadi.

Asar yevropa klassik uvertyurasi shakliga ega, lekin xalq kuylari mavjudligi evaziga tinglovchilar tomonidan xalq bayrami kabi qabul qilinadi.

1930 yillar o‘rtalarida yangi asar – A.Kozlovskiyning 3 ovozli “Lola” syuitasi yaratilgan. Bu asarda lolalar terish marosimi aks ettirilgan:

I – qism – sonata shakli, “lolachilarning bozor maydonida yig‘ilishi”

II – qism – “Farg‘ona bog‘laridagi tunlar”, impressionistik usulda yozilgan

III – qism – final, “lolachilarning qaytishi”, “lolalar bilan yurish”

2. 1940-1950 yillarni o‘z ichiga olgan ikkinchi davr. Simfonik musiqaning shakl va janrlarini o‘zlashtirish davri. Bu esa, o‘z o‘rnida, O‘zbekistonda rus kompozitorlari faoliyati bilan bog‘liq. Sitatalik usuli qo‘llanilishi davom etadi. Shu bilan birga bu davrda TDKda ta‘limni tugatib, yevropa simfonik musiqa an‘analarini o‘rganib, lekin bundan xolis, xalq kuylaridan foydalanishni davom ettirayotgan o‘zbek kompozitorlari ham o‘z faoliyatini boshlaydi.

Bu davrdagi asosiy janrlar – simfoniya, simfonik syuita, simfonik poema, cholg‘u konsert va boshqalar. Dasturli tayinlanish saqlanib qolinadi [2, b. 94].

Quyidagi davr asarlaridan:

V.Uspenskiyning “Muqanna” uvertyurasi va “Tog‘lik” lirik poemasi;

A.Kozlovskiyning “Qoraqalpoqcha” syuitasi;

G.Mushelning 1, 2 simfoniylari;

M.Ashrafning 1-qahramonlik, 2-“G‘oliblarga shon-sharaflar” simfoniylari;

B.Nadejdinning simfonik asarlari;

R.Xamraevning birinchi o‘zbek aktrissalariga bag‘ishlangan 1-simfoniyasi;

Ik.Akbarovning “Shoir xotirasiga” simfonik poemasi;

D.Zokirovning “Xamza” simfonik poemasi va boshqa asarlarni ajratish mumkin.

Shuningdek, S.Yudakovni ham alohida aytib o‘tish kerak. Bu kompozitor asosan uvertyura va poema janrlarida ijod qilgan, jumladan, “Yoshlar”, “Festival”, “Xorazm bayram yurishlari” kabi simfonik poemalar [6, b. 61-62].

3. 1960-1990 yillarni o‘z ichiga olgan uchinchi davr. Bu davr O‘zbekistonda umuman simfonik musiqaning jadal rivojlanishi bilan belgilanadi. Aynan shu davrda kompozitorlik maktablari yetuk darajaga ko‘ratiladi, barcha zamonaviy uslubiy yo‘nalishlar va kompozitorlik texnikalar o‘zlashtiriladi, kompozitorlar yevropa va sharq an‘analarini mukammal o‘zlashtirib, bu asosda simfonik musiqada yangicha janrlar joriy etiladi, xususan, simfoniya-maqom [7, b. 120], konsert-maqom, konsert-doston kabi janrlar keng qo‘lamga chiqadi. Shuningdek klassik polifonik janrlardan bo‘lgan passakalya, prelyudiya va fuga va boshqalarni kompozitorlik ijodiyotda uchratish mumkin. Simfonik musiqada o‘zbek maqomlarining shakl hosil qiluvchi tamoyillari ham uchraydi. Kompozitorlarning simfonik musiqada mavjud barcha janrlarida ijodi davom etadi, lekin asosiy janr simfoniya. 1990 yillar boshlaridan diniy va ma‘naviy mavzularga qiziqish ortadi. Ushbu davrning yorqin namunalarini sifatida quyidagi asarlarni ajratish mumkin:

Ik.Akbarovning “Pochta”, “Shakuntala” simfonik syuitalari, 5 qismli “Samarqand xikoyalari” simfoniya;

T.Qurbanovning 6 ta simfoniya;

B.Gienko, Zeydman Varelas, F.Yan.-Yanovskiyning simfonik konsertlari;

M.Tojievning 20 ta simfoniya va boshqalar. Aynan M.Tojiev ijodida yangi tendensiyalar va o‘zbek simfonizmi tamoyillari yaqqol seziladi. Kompozitor simfoniya janri, xususan, o‘zbek simfoniya sinfining tan olingan ustasi hisoblanadi. “Maqom simfonizmi” atamasi aynan M.Tojiev nomi bilan bog‘liq [7, b. 162-163]. Kompozitor nafaqat maqomning butkul kuylari, balki musiqiy materialning rivojlov xususiyatlari, ritmika, lad qonuniyatlari kabi tamoyillarni ham qo‘llagan. Uning 1, 5 va 9 simfoniya sinfini mubolag‘asiz “simfoniya maqomlar” deb atash mumkin.

4. 1990-2020 yillarni o‘z ichiga olgan Mustaqillik davri simfonik musiqasi. Bu davrda simfonik musiqada turli xil tajribalar kuzatiladi. Musiqa san‘ati rivojlanishining umumdunyoviy jarayoniga integratsiya jarayoni mualliflarga simfonik musiqaning mavjud bo‘lgan janrlari chegaralaridan tashqariga chiqishga yo‘l ochdi. Masalan, 1990 yillar boshlarida M.Tojiev tomonidan yaratilgan – 15-“Arxipelag-Gulag”, 16-“Ruxlar nidosi”, 19-“Qahramonlik” simfoniya sinfini, T.Qurbanovning “Askiya” simfoniya-rapsodiyasi, Ik.Akbarovning simfoniya-epitafiyasi, N.Giyasovning simfoniya-maqomlari.

Shuningdek avvallari har yili bo‘lib o‘tgan “Ilxom XX” Xalqaro zamonaviy musiqa festivalida D.Yan.-Yanovskiy, D.Varelas, P.Medyulyanova, J.Shukurov va shular kabi yosh ijodkorlar simfonik asarlari muntazam yangrab kelgan.

Xulosa o‘rnida uni aytish joizki, m azkur maqolada musiqiy-tarixiy fanlarni o‘qitish jarayonida musiqa adabiyoti fanida “O‘zbek simfonik musiqasi rivojlanishining asosiy davrlari” mavzuining o‘tilishi mohiyati va o‘rning ilmiy-pedagogik asoslanishi taxmin qilinadi. Shunday qilib, zamonaviy O‘zbekiston o‘quvchilarining tajribasi o‘quv jarayonida pedagogik yangiliklardan foydalanishning keng imkoniyatlariga ega. Ularni qo‘llash samaradorligi

ixtisoslashgan musiqiy ta'lim muassasasida o'rnatilgan an'analarda ushbu yangiliklarni idrok etish qobiliyatiga va muassasaning moddiy-texnik bazasiga bog'liq.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish faqat diqqat markazida bo'ladigan jarayon bo'lsa, samarali bo'ladi, uning davomida yakuniy maqsadga erishishga qaratilgan bir qator xususiy pedagogic vazifalar hal etiladi.

Mamlakatimizda olib boriladigan islohotlar o'quv jarayoni sifatini oshirishni talab qiladi. Shaxsiy rivojlantirish uchun ushbu islohotlar oq'uv jarayonida musiqaga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs qilib tarbiyalashga qaratilganligi muhimdir.

O'zbek simfonik musiqasi rivojlanishining asosiy davrlari muammolarini yoritish jarayonida quyidagi xulosalar aniqlandi:

- janrlarning keng qamrovligi va xila-xilligi;
- simfonik musiqada o'zbek milliy individuallikni kuchaytirish;
- yevropa klassik simfonik shakllardan voz kechilishi va o'ziga xoslikka o'tilishi;
- o'ziga xos, kelib chiqishidan murakkab sharqona elementlar bilan boyitilgan, milliy simfonik shakllarning joriy etilishi;
- o'zbek simfonik musiqasi o'zbek musiqasi madaniyatining shakllanish bosqichlarida ravon rivojlanib kelgan janrlardan biri ekanligini aniqlash;
- O'zbekistonda simfonik musiqasining shakllanishi va rivojlanishini 4 davrga bo'lish;
- har bir davrga xos rivojlanish tamoyillari, asosiy janrlar, kompozitorlar va asarlar tasnifini tuzish;

Xulosa o'rnida yana shuni ta'kidlash joizki, o'zbek simfonizmida, albatta, yechilmagan muammolar ham mavjud:

- turg'un yevropa stereotiplarini yengib, shaxsiy simfonik modelni ishlab chiqish;
- asrlar davomida dunyo simfonik madaniyatida yig'ilib kelgan eng yaxshi, eng qimmatli "boylikni" ko'paytirish;

Ixtisoslashtirilgan musiqiy ta'lim muassasalarida o'zbek musiqasi adabiyoti fanida "O'zbek simfonik musiqasi rivojlanishining asosiy davrlari" mavzuining o'tilishi mohiyati va o'rnining muhimligini ta'kidlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Asafyev B.V. Muzikalnaya forma kak protsess. 1-kitob, L., 1971.
2. Ashrafi M. Muzika moyey jizni. T., 1975.
3. Belyayev V.M. muzika v Uzbekistane. – Jurnal "Jizn iskusstva". 1929, №6
4. Vizgo T. Simfonicheskaya muzika Uzbekistana. – Jurnal "Zvezda Vostoka", 1946, №10
5. Mamadjanova E.U. Osnovniye periodi muzikalnoy kulturi Uzbekistana XX veka. – Sbornik nauchno-metodicheskix statey RSMAL imeni V.S.Uspenskogo. T., 2008.

6. Mamadjanova E.U. Uzbekskaya muzikalnaya literatura. T., 2010.
7. Yanov-Yanovskaya N.S. Uzbekskaya simfonicheskaya muzika. T., 1979.
1. Асафьев Б.М. Музыкальная форма как процесс. 1-книга, Л., 1971.
2. Ашрафи М. Музыка моей жизни. Т., 1975.
3. Беляев В.М. Музыка в Узбекистане. -Журнал «Жизнь искусства». 1929, №6
4. Вызго Т. Симфоническая музыка Узбекистана. – Журнал «Звезда Востока». 1946, №10
5. Мамаджанова Э.У. Основные периоды музыкальной культуры Узбекистана XX века. – Сборник научно-методических статей РСМАЛ имени В.Успенского. Т., 2008.
6. Мамаджанова Э.У. Узбекская музыкальная литература. Т., 2010.
7. Янов-Яновская Н.С. Узбекская симфоническая музыка. Т., 1979.